

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirining
2025 yil "23" iyundagi
180-sonli buyrug'iga
30-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TERAPIYA VA TIBBIY
REABILITASIYA ILMIIY-AMALIIY TIBBIYOT MARKAZI**

**“SURUNKALI GASTRIT KASALLIGI”
NOZOLOGIYASI BO‘YICHA
MILLIY KLINIK BAYONNOMA**

Toshkent – 2025

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

“РИТВАТРИАТМ” ДМ

Директори, профессор

Б.А. Аляви

“ _____ ”

2025 й.

**“СУРУНКАЛИ ГАСТРИТ КАСАЛЛИГИ”
НОЗОЛОГИЯСИ БЎЙИЧА
МИЛЛИЙ КЛИНИК БАЁННОМА**

Тошкент – 2025

Mundarija:

1.	Surunkali gastrit kasalligini tashxislash va davolash	5-bet
2.	Surunkali gastrit kasalligi tibbiy profilaktikasi va rehabilitatsiyasi	26-bet

**“SURUNKALI GASTRIT KASALLIGI” NOZOLOGIYASI
BO‘YICHA TASHXISLASH VA DAVOLASH
MILLIY KLINIK BAYONNOMA**

Toshkent – 2025

1. Kirish qismi.

Surunkali gastrit kasalligi dolzarbligini inobatga olib dalillarga asoslangan ma'lumotlar va tavsiyalarni tibbiyot xodimlariga taqdim etish, kasallikni erta tashxislash, oldini olish va davolash bo'yicha yagona yondashuv tizimini tashkil etish va tadbiriq etish. Ushbu protokolni ishlab chiqish uchun Butunjahon gastroenterologlar tashkiloti (WGO), Amerika gastroenterologlari uyushmasi (AGA), Rossiya gastroenterologlar uyushmasi (RGA), Rossiya kolorektal jarrohlar jamiyati (ROKX) klinik ko'rsatmalari asos qilib olindi.

Surunkali gastrit kasalligi mavjud bo'lgan bemorlarga yordam ko'rsatadigan mutaxassislar uchun mo'ljallangan ushbu bayonnomada hozirgi kunga kelib mavjud bo'lgan klinik dalillar, tegishli amaliyot vaqtlari, shuningdek ekspert xulosalari keltirilgan.

Halqaro kasalliklar klassifikatori – HKK(MKB)-10 kodi:

K29	Surunkali gastrit
K 29.3	Surunkali yuzaki gastrit
K 29.4	Surunkali atrofik gastrit
K 29.9	Surunkali autoimmungastrit
Yuklab olish (HKK (MKB)dan havola)	http://mkb-10.com/index.php?pid=10149

HKK – 11:

DA42 gastrit	
DA42.0	Autoimmun gastrit
DA42.1	Helicobacter pylori-assotsirlangan gastrit
DA42.2	Eozinofilli gastrit
DA42.3	Limfotsitar gastrit
DA42.4	Allergik gastrit
DA42.5	Duodenogastral reflyuks natijasida gastrit
DA42.5	Menetrie kasalligi
DA42.7	Noaniq etiologiyali, spetsifik endoskopik yoki patomorfologik xususiyatga ega gastrit
DA42.8	Tashqi sabab orqali kelib chiqqan gastrit
DA42.Y	Boshqa aniqlangan gastrit
DA42.Z	Aniqlanmagan gastrit

Bayonnomani ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish sanasi: Bayonnomani 2025 yil ishlab chiqilgan. Qayta ko'rib chiqish sanasi 2028 yil;

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazir o‘rinbosari Basitxanova E.E, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Milliy klinik bayonnoma ishlab chiqish uchun mas‘ul muassasa: RITvaTRIATM

Mualliflar ro‘yxati:

Alyavi B.A.	t.f.d., prof. “RITvaTRIATM” DM direktori.
Ismoilova J. A.	t.f.d., “RITvaTRIATM” DM direktorning ilmiy ishlar bo‘yicha muovini
Karimov M.M.	t.f.d., professor, “RITvaTRIATM” DM Gastroenterologiya bo‘limi rahbari
Dustmuhamedova E.Ch.	t.f.n., “RITvaTRIATM” DM Gastroenterologiya bo‘limi mudiri
Dusanova N.M.	t.f.n., “RITvaTRIATM” DM Gastroenterologiya bo‘limi katta ilmiy xodimi
Karimova D.K.	t.f.n., “RITvaTRIATM” DM Gastroenterologiya bo‘limi shifokori

Taqrizchilar:

Abdullaev A.X.	t.f.d., BIX, “RITvaTRIATM” DM bo‘limi mudiri
Zufarov P.S.	t.f.d., TTA klinik farmakologiya kafedrası professori

Klinik bayonnoma “RITvaTRIATM” DM ilmiy kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi.

Bayonnoma protokolda foydalanilgan qisqartmalar:

PPI – proton pompasi ingibitorlari
 N. rylori – Helicobacter pylori
 KT – kompyuter tomografiya
 NYaQDV – nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori vositalari
 NX – nisbiy xavf
 IN – imkoniyatlar nisbati
 P-CAB - kaliy raqobatli retseptorlarning ingibitorlari
 OR – oshqozon raki
 EGDS – ezofagogastroduodenoskopiya
 SG – surunkali gastrit

Mazkur tashxis/nozologiya bo‘yicha protokolning foydalanuvchilari:

1. Shifokor-gastroenterologlar.
2. Umumiy amaliyot shifokorlari (oilaviy shifokorlar).
3. Terapevt-shifokorlar.

4. Tez yordam va shoshilinch tibbiy yordam shifokorlari.
5. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari va kollejlari o‘qituvchilari.
6. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari, magistrarlari, klinik ordinatorlari.

Bemorlar toifasi:

Surunkali gastrit kasalligiga shubha qilingan va tashxis qo‘yilgan bemorlar.

Diagnostika usullari (diagnostik aralashuvlar) uchun dalillar darajasini baholash shkalasi (DD)

DD	Dalillarning ishonchlilik darajasi
1	Referens usul yordamida nazorat ostida o‘tkazilgan tadqiqotlarning tizimli sharhlari yoki meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli sharhi
2	Referens usul nazorati bilan o‘tkazilgan ayrim tadqiqotlar yoki ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi bundan mustasno
3	Referens usul yordamida izchil nazoratsiz yoki o‘rganilayotgan usuldan mustaqil bo‘lmagan referens usulo yordamida o‘tkazilgan tadqiqotlar yoki randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kohort tadqiqotlari
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi
5	Muolajaning ta‘sir mexanizmi asoslari yoki ekspertlar xulosasi

Profilaktika, terapevtik va rehabilitatsiya tadbirlari uchun dalillar darajasini (DD) baholash uchun shkala

DD	Dalillarning ishonchlilik darajasi
1	Meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi
2	Ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi bundan mustasno
3	Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat yoki holatlar seriyasi tavsifi, “holat-nazorat” tadqiqoti
5	Muolajaning ta‘sir mexanizmi asoslari (klinika oldi tadqiqotlar) yoki ekspertlar xulosasi

Profilaktika, diagnostika, terapevtik va rehabilitatsiya tadbirlari bo‘yicha tavsiyalar (RTT) ning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

RTT	Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi
A	Kuchli tavsiya (barcha ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilgan)

B	Shartli tavsiya (ayrim ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, ayrim tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va/yoki qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan)
C	Kuchsiz tavsiya (sifatli dalillar keltirilmagan (ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallamaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati past va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan)

2. Asosiy qism.

Tarifi

Gastrit - oshqozon shilliq qavatining yallig‘lanish kasalligi. O‘tkir va surunkali gastritlar farqlanadi.

Surunkali gastritlar - Surunkali gastrit - bu morfologik jihatdan doimiy yallig‘lanish infiltrati va hujayra yangilanishining buzilishi bilan tavsiflanadigan surunkali kasalliklar guruhi bo‘lib, oshqozon shilliq qavatida ichak metaplaziyasi, atrofiya va epitelial displaziya rivojlanishiga olib keladi..

Kasallik yoki holat (kasalliklar yoki holatlar guruhi)ning etiologiyasi va patogenezini

Gastritik o‘zgarishlar me‘da shilliq pardasining turli endogen va ekzogen patogen omillarga javob tariqasida namoyon bo‘ladigan reaksiyalaridan iborat. Surunkali gastritning morfologik manzarasini tashkil etuvchi asosiy o‘zgarishlarga yallig‘lanish, atrofiya, hujayra yangilanishining buzilishi, shu jumladan metaplaziya va displaziya kiradi.

Me‘da shilliq pardasini kolonizatsiya qiladigan *Helicobacter pylori* bakteriyasi gastritning etiologik omili hisoblanadi. *H. pylori* ning etiologik ahamiyati aniqlangach, surunkali gastrit aniq ifodalangan va klinik jihatdan muhim nozologik birlikka aylandi - sababi, patogenetik rivojlanish bosqichlari, prognozi ma‘lum bo‘lgan va etiotrop davolash imkoniyatlari belgilangan kasallik sifatida tan olindi. B.J. Marshall va J.R. Warren odam me‘dasi bioplatlaridan ilgari noma‘lum bo‘lgan grammanfiy mikroorganizm kulturasini birinchi marta ajratib olishga muvaffaq bo‘ldilar. Ular *H. pylori* ni keng ko‘lamda o‘rganishni boshlagan dastlabki maqolalaridayoq bu bakteriyaning mavjudligini epiteliy va shilliq pardaning xususiy plastinkasidagi limfoplazmotsitar infiltratsiya fonida polimorf yadroli leykotsitlar infiltratsiyasi bilan bog‘ladilar. *H. pylori* ning me‘da shilliq pardasini kolonizatsiya qilish va o‘tkir, keyinchalik surunkali gastrit keltirib chiqarish qobiliyati B. Marshall (1985) va A. Morris (1987) tomonidan alohida o‘tkazilgan o‘zini zararlab ko‘rish tajribalarida yorqin tasdiqlandi. Bakteriya genomida "patogenlik orolchasi" cag PAI ajratiladi, uning markeri cagA geni - "sitotoksin bilan bog‘liq A geni" hisoblanadi. Bu gen *H. pylori* shtammlarining 50-70 foizida uchraydi. cag PAI ni kodlaydigan ayrim oqsillar bakteriyaning IV tip sekretor tizimini tuzish uchun xizmat qiladi. Shu tufayli *H. pylori* me‘da epiteliotsitiga birikkanida xo‘jayin hujayrasi ichiga CagA, peptidoglikan va ehtimol, o‘zining boshqa molekulalarini ham kiritadi. Epiteliotsitdagi *H. pylori* oqsillari bir nechta signal yo‘llarini ishga tushiradi. Natijada xo‘jayin hujayrasi sitoskeletining o‘zgarishi, hujayralararo aloqalarning buzilishi, proliferatsiya va apoptozning o‘zgarishi, shuningdek, yallig‘lanishga moil ta‘sir yuzaga keladi. Me‘da epiteliotsitlari *H. pylori* mavjudligiga IL-8 va T-hujayralar faollashganida ekspressiyalanadigan hamda sekresiyalanadigan xemokin (RANTES) ajratib chiqarish bilan javob beradi. Bu esa shilliq pardada faol yallig‘lanish reaksiyasi boshlanishiga olib keladi. *H. pylori* shtammlarining taxminan 50 foizi yuqori immunogen oqsil - vakuolizatsiyalovchi sitotoksin A (VacA) ishlab chiqaradi. Bu oqsil in vitro sharoitida hujayralarning vakuolizatsiyasini keltirib chiqaradi, in vivo sharoitida esa yallig‘lanish va apoptoz bilan bog‘liq deb hisoblanadi. Shunday qilib, *H. pylori* kolonizatsiyasi me‘da shilliq pardasidagi yallig‘lanish infiltratining doimiyligini ta‘minlaydi. *H. pylori* qo‘zg‘atgan

yallig'lanish atrofiyaga - me'da bezlarining qaytmas yo'qolishiga olib keladi. Natijada ularning o'rnini fibroz to'qima yoki metaplaziyaga uchragan epiteliy egallaydi. Atrofik gastrit, ayniqsa me'da tanasining zararlanishi va gipoxloridriya bilan kechganda, me'da adenokarsinomasiga olib boradigan xavf omili ekanligi isbotlangan.

Autoimmun gastritning asosida autoimmun mexanizmlar yotadi. Bu parietal hujayralar antigenlariga va (yoki) ichki omilga qarshi antitanalarning mavjudligi bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, gastrit boshqa autoimmun kasalliklar (autoimmun tireoidit, 1-turdagi qandli diabet, vitiligo va boshqalar) bilan birga kechishi ham buning isbotidir.

Gastritning boshqa maxsus turlari kamroq uchraydi. Ular o'ziga xos etiologik omillar bilan tavsiflanadi yoki boshqa kasalliklarga hamroh bo'lishi mumkin. Limfotsitar gastrit glyutenli enteropatiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Eozinofilli gastrit eozinofilli gastroenterit doirasida kechadi. Granulyomatoz gastrit esa Kron kasalligi, sarkoidoz va vaskulitlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Kasallik yoki holat (kasalliklar yoki holatlar guruhi)ning epidemiologiyasi

H. pylori infeksiyasi global ahamiyatga ega va keng tarqalgan bo'lib, jumladan bizning mamlakatimizda ham keng yoyilgan. Turli hududlarda o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, katta yoshdagi aholining 65-92 foizidan ortig'i ushbu infeksiya bilan zararlangan. *H. pylori* ning yuqori darajada uchrashi surunkali gastritning ko'p uchrashiga sabab bo'ladi. Shu sababli, "gastrit" tashxisi sog'liqni saqlash amaliyotida keng qo'llaniladi. Bu holat, bir tomondan, kasallikning haqiqatan ham ko'p uchrayotganini ko'rsatsa, boshqa tomondan, dispepsiya alomatlarini talqin qilishda hamda zarur tashxis usullarini qo'llashda, ayniqsa elektron/virtual xromoskopiya bilan yuqori aniqlikdagi videoendoskopiya va oshqozon shilliq qavati biopatlarni kattalashtirish hamda patologik-anatomik tekshirishda sub'ektiv va ob'ektiv qiyinchiliklar mavjudligidan dalolat beradi. O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi Salomatlik markazi ma'lumotlariga ko'ra, gastrit bilan kasallanish har 100 ming aholiga 1070 ga yaqin holatni, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi bilan kasallanish esa har 100 ming aholiga 421 ni tashkil etgan.

Tasnifi

Gastritlarning umumiy qabul qilingan klinik tasnifi 1996 yildagi Xyuston modifikatsiyasi hisoblanadi (5-jadval).

Surunkali gastritlarning Sidney tasnif tizimi

Gastrit turi	Etiologik omillar	Sinonimlar (avvalgi tasniflar)
Noatrofik	<i>Helicobacter pylori</i> Boshqa omillar	Yuzaki Surunkali antral B turdagi gastrit Gipersekretorli gastrit
Atrofik autoimmun	Immun mexanizmlar	A turdagi gastrit Oshqozon tanasining diffuz gastriti, V12 tanqisligi kamqonligi va sekresiyaning pasayishi bilan bog'liq
Atrofik	<i>Helicobacter pylori</i>	Aralash gastrit

multifokal	Ovqatlanishning buzilishi Atrof-muhit omillari	A va V turlari
Maxsus shakllari		
Kimyoviy	Kimyoviy ta'sirlovchilar: O't suyuqligi (DGR) NYaQDVlar qabul qilish	Reaktiv gastrit S turi Reaktiv refluks-gastrit
Radiatsion	Nurdan shikastlanish	
Limfotsitar	Idiopatik Immun mexanizmlar Glyuten	Gastrit, assotsirovanny s seliakiey
Granulematoz	Kron kasalligi Sarkoidoz Vegener granulyomatozi Yot jismlar Idiopatik	Izolirlangan granulematoz
Eozinofilli	Ovqatdan allergiya Boshqa allergenlar	Allergik
Boshqa infeksiyon	Bakteriyalar (Helicobacter pylori dan tashqari) Zamburug'lar, Parazitlar	
Gigant gipertrofik	Menetrie kasalligi	

Morfologik o'zgarishlarning tavsifi gastritlarning endoskopik toifalari xususiyatlari bilan to'ldiriladi:

- eritematoz/ekssudativ gastrit (yuza gastrit);
- yassi eroziyalar;
- bo'rtgan eroziyalar;
- gemorragik gastrit;
- giperplastik gastrit;
- duodenogastral refluks (DGR) bilan kechuvchi gastrit - refluks-gastrit.

Atrofiya va yallig'lanishning gistologik ifodalanish darajasini baholash uchun gastritni baholashning yangi OLGA (Operative Link for Gastritis Assessment) tizimi qo'llaniladi.

Atrofik gastritning tasnifi (OLGA 2007 y.)

Antrum	Tana			
	0	I	II	III
0	0 daraja	I daraja	II daraja	II daraja
I	I daraja	II daraja	II daraja	III daraja

II	II daraja	II daraja	III daraja	IV daraja
III	II daraja	III daraja	IV daraja	IV daraja

OLGA tizimida gastrit bosqichining integral ko'rsatkichi

Antrum	Tana			
	0	I	II	III
0	0 bosqich	I bosqich	II bosqich	II bosqich
I	I bosqich	II bosqich	II bosqich	III bosqich
II	II bosqich	II bosqich	III bosqich	IV bosqich
III	II bosqich	III bosqich	IV bosqich	IV bosqich

Har bir ustunda atrofiya modifikatsiyalangan Sidney gastrit tasniflash tizimining vizual analog shkalasiga muvofiq to'rt bosqichli shkala (0-3) bo'yicha ko'rsatilgan. Gastritning darajasi umumiy yallig'lanish infiltratsiyasining (neytrofil leykotsitlar va mononuklear hujayralar) ifodalanganlik darajasini, bosqichi esa atrofiyaning ifodalanganlik darajasini anglatadi.

Diagnostikasi

Kasallik yoki holat (kasalliklar yoki holatlar guruhi) tashxisi, tashxis usullarini qo'llashning tibbiy ko'rsatmalari va qarshi ko'rsatmalari

Kasallik/holat tashxisini qo'yish mezonlari:

Gastrit tashxisi me'da shilliq pardasidagi yallig'lanishni gistologik yo'l bilan aniqlashga asoslanadi. Bu yallig'lanish me'daning o'z plastinkasi va epiteliy ichida neytrofil leykotsitlarning mavjudligi, mononuklear yallig'lanish infiltratsiyasining zichligi, shuningdek atrofiya va ichak metaplaziyasi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy endoskopik tekshiruv usullari, xususan, elektron yoki virtual xromoskopiya va kattalashtirish imkoniyatiga ega yuqori aniqlikdagi videoendoskopiya, gastrit, duodenit va me'da shilliq qavatidagi saraton oldi o'zgarishlarini tashxislash uchun qo'shimcha yuqori axborotli imkoniyatlar taqdim etadi.

Gastritning eng muhim etiologik omili H. pylori infeksiyasi hisoblanadi va H. pylori ga nisbatan ijobiy testlar surunkali gastrit mavjudligini ko'rsatadi.

Shikoyat va anamnezi

Anamnez yig'ish paytida bemorda ilgari biopsiya bilan EGDFS o'tkazilgan-o'tkazilmaganligini; bunda rak oldi holatlari va me'da shilliq pardasidagi o'zgarishlar (atrofiya, ichak metaplaziyasi, epitelial displaziya) mavjudligi haqida ma'lumotlar bor-yo'qligini aniqlashtirish lozim. Prognozni baholash uchun H. pylori infeksiyasiga qarshi eradikatsion davolash ilgari o'tkazilgan-o'tkazilmaganligini, qaysi davolash sxemasi qo'llanilganligini, shuningdek antigelikobakter terapiya samaradorligi nazorat qilingan-qilinmaganligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Autoimmun gastrit uchun anamnezda vitamin B12 tanqisligi va makrotsitar anemiya mavjudligi, autoimmun tireoidit, 1-tip qandli diabet, vitiligo va boshqa autoimmun kasalliklar borligi,

shuningdek, ilgari o'tkazilgan endoskopik va patologoanatomik tekshirishlarda me'da tanasi shilliq pardasining atrofiyaga uchragani, antral qism shilliq pardasi esa nisbatan saqlanib qolgani aniqlanganligi muhim ahamiyatga ega.

Fizikal tekshiruv

Odatda, fizik tekshiruv paytida gastritga xos bo'lgan ma'lumotlar aniqlanmaydi.

TASHXIS VA DAVOLASH USULI, TEXNIKASI VA TARTIBI

Diagnostik me'zonlar:

Shikoyatlari	<p>Surunkali gastritlarda aniq klinik belgilar kuzatilmaydi, quyidagi alomatlar yuzaga kelishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> • surunkali antral yuzaki H.pylori bilan bog'liq gastritda dispepsiyaning "yaraga o'xshash" ko'rinishi (epigastriy sohasida va/yoki piloroduodenal qismda bo'g'iq og'riqlar) yoki "me'da dispepsiyasining" diskinetik turi - tez to'yinish hissi, ovqatlanishdan so'ng qorin to'lib qolishi, dam bo'lishi, ko'ngil aynishi kuzatiladi; • surunkali atrofik multifokal gastritda "me'da dispepsiyasi" belgilari - tez to'yinish hissi, ovqatlanishdan so'ng qorin to'lib qolishi, dam bo'lishi, ko'ngil aynishi kuzatilishi mumkin; • autoimmun atrofik gastritda - V-12 tanqisligi anemiyasi belgilari va "me'da dispepsiyasi" alomatlari namoyon bo'lishi mumkin (yuqoriga qarang).
Anamnezi	<ul style="list-style-type: none"> • Surunkali antral yuzaki H.pylori bilan bog'liq gastrit anamnezida: gastroduodenal patologiya (GDP) bo'yicha irsiy moyillik. Ovqatlanish tartibining buzilishi, quruq ovqat iste'mol qilish, o'tkir, dudlangan va qovurilgan taomlarni, gazlangan ichimliklarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish; • surunkali atrofik multifokal gastritda - anamnezda H.pylori bilan bog'liq surunkali antral yuzaki gastritning uzoq muddat davom etganligi; • autoimmun atrofik gastritda - autoimmun kasalliklarning mavjudligi (autoimmun tireoidit, qalqonsimon va qalqonsimon oldi bezlarining gipoyoki giperfunksiyasi, I tip qandli diabet, autoimmun (pernitsioz) kamqonlik).
Fizikal tekshiruvlar	<ul style="list-style-type: none"> • Surunkali antral yuzaki H.pylori bilan bog'liq gastritda qorinni paypaslaganda epigastral va piloro-duodenal sohada o'rtacha og'riq, qorin dam bo'lishi kuzatilishi mumkin; • surunkali atrofik multifokal gastritda - til "silliqlanishi" yoki qalin oq karash bilan qoplanishi. Qorin paypaslanganda epigastral sohada o'rtacha tarqalgan og'riq seziladi; • autoimmun atrofik gastritda - avitaminoz belgilari, til yallig'lanishi, funikulyar mieloz, kamqonlik alomatlari, jigar kattalashishi, kamroq hollarda - taloq kattalashishi kuzatiladi..

Laborator diagnostika tekshiruvlar

4S	Gastrit bilan og‘rigan barcha bemorlarda anemiya holatini istisno etish maqsadida umumiy (klinik) qon tahlili o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu tahlil gastroduodenal shilliq pardaning eroziv zararlanishi yoki autoimmun gastrit tufayli qon ketishi ehtimolini tekshirish uchun zarur. Tahlil natijalarida gemogloblin darajasi, gematokrit ko‘rsatkichi, eritrotsitlar hajmi va rang ko‘rsatkichi aniqlanadi.
----	---

Izoh: Surunkali gastritda qonning klinik tahlili ko‘pincha sezilarli o‘zgarishlarsiz qoladi, biroq anemiya aniqlanishi mumkin. Bu anemiya mikrotsitar bo‘lishi mumkin, bu ochiq yoki yashirin qon ketishidan yoki temir so‘rilishining buzilishidan dalolat beradi. Shuningdek, oshqozonning autoimmun zararlanishi natijasida V₁₂ vitamini tanqisligi tufayli makrotsitar anemiya ham kuzatilishi mumkin..

2B	Autoimmun gastritga shubha qilingan barcha bemorlarga tashxisni tasdiqlash maqsadida parietal hujayralarga va Kasl omilga qarshi antitelolarni aniqlash uchun qon tahlili o‘tkazish tavsiya etiladi.
----	--

Izoh: Autoimmun gastrit tashxisi uchun sezuvchanlik taxminan 80 foizni tashkil etadi, ammo o‘ziga xosligi past (autoimmun gastritga ega bo‘lmagan shaxslarda ham aniqlanadi). Ichki omilga qarshi antitanalar kobalaminning ichki omil bilan bog‘lanishiga to‘sqinlik qiladi. Autoimmun gastritni aniqlash uchun sezuvchanlik taxminan 50 foiz bo‘lsa-da, o‘ziga xosligi 99 % gacha yetadi.

2A	Gastritda me‘dada rak oldi o‘zgarishlari (atrofiya, ichak metaplaziyasi) mavjudligi gumon qilingan barcha bemorlarga tashxisni tasdiqlash, me‘da saratoni rivojlanish xavfi darajasini baholash va endoskopik kuzatuv tartibini belgilash maqsadida qonda pepsinogen I, pepsinogen II va gastrin-17 miqdorini aniqlash tahlili o‘tkazish tavsiya etiladi.
----	---

Izoh: Me‘da tanasi va antral qismi shilliq pardasi atrofiyasining zardob markyori tufayli atrofik gastrit tashxisi ancha osonlashdi. Me‘da tanasi shilliq pardasining yaqqol atrofiyasini aniqlashda zardobdagi pepsinogen I miqdorining pasayishi yuqori sezuvchanlik va o‘ziga xoslikka ega (tegishlicha 84 va 95%). Antral qism shilliq pardasi atrofiyasi uchun G-hujayralar sonining kamayishi natijasida bazal va ovqatdan keyingi gastrin-17 miqdorining pastligi xosdir.

Instrumental diagnostik tekshiruvlar

2A	Barcha bemorlarga gastrit va duodenit tashxisini tasdiqlash, me‘da shilliq qavatidagi saratonoldi holatlar va o‘zgarishlarni aniqlash hamda darajalash maqsadida, ayniqsa atrofiya, ichak metaplaziyasi va displaziyaning tarqalishi va darajasini baholash uchun, qarshi ko‘rsatmalar bo‘lmagan taqdirda, ezofagogastroduodenoskopiya (EGDFS) o‘tkazish tavsiya etiladi.
----	---

Izoh: Oshqozonning saraton oldi o‘zgarishlarini aniqlashda an’anaviy oq yorug‘likli endoskopiya usulida endoskopik va gistologik ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik qoniqarsiz bo‘lsada, yuqori aniqlikdagi endoskopiya natijalari ancha ishonchli hisoblanadi..

2A	Barcha bemorlarga oshqozon shilliq qavatidagi saraton oldi holatlari va/yoki o'zgarishlarni aniqlash uchun imkon boricha yuqori aniqlikdagi endoskopiya va virtual xromoEndoskopiya o'tkazish tavsiya etiladi. Bu tekshiruv kattalashtirib yoki kattalashtirmasdan o'tkazilishi mumkin. Shuningdek, atrofiya va ichak metaplaziyasi bosqichini baholash hamda neoplaziyani aniqlash maqsadida maqsadli biopsiya ham o'tkaziladi.
----	--

Izoh: Tizimli tahlil shuni ko'rsatdiki, ichak metaplaziyasini aniqlash uchun NBI rejimidagi endoskopik tekshiruv (ko'p hollarda kattalashtirish bilan) 86% sezuvchanlik va 77% o'ziga xoslikni, displaziyani aniqlash uchun esa 90% sezuvchanlik va 83% o'ziga xoslikni namoyish etdi. NBI rejimidagi endoskopiyaning takrorlanuvchi belgilari asosida shilliq qavat o'zgarishlarining soddalashtirilgan tasnifi taklif etildi. Bu tasnif bo'yicha ichak metaplaziyasini aniqlash aniqligi 84%, displaziyani aniqlash aniqligi esa 95% ni tashkil etdi. Taqdim etilgan natijalar shifokorning tayyorgarligiga bog'liq bo'lib, tajribali endoskopistlarda yaxshiroq natijalar kuzatilganligi qayd etildi.

2V	Ilk bor diagnostik EGDS o'tkazilayotgan barcha bemorlarga, ayniqsa oshqozon shilliq qavatida atrofik, metaplastik va neoplastik o'zgarishlar bo'lishi mumkin deb gumon qilingan hollarda, saraton oldi holatlarini to'g'ri bosqichlash maqsadida biopsiya o'tkazish tavsiya etiladi. Biopsiyadan so'ng oshqozon to'qimasi patologo-anatomik tekshiruvdan o'tkaziladi, shu jumladan gistokimyoviy va immunogistokimyoviy usullar qo'llaniladi. Bu H. pylori infeksiyasini aniqlash hamda atrofik gastritning bosqichlarini belgilash uchun zarurdir.
----	---

4S	Me'daning ikki qismidan (tana va antral bo'limdan kichik va katta egrilik bo'ylab ikkitadan) biopsiya olish tavsiya etiladi. Me'da tanasi va antral bo'limidan olingan bioptatlar aniq belgilanishi va alohida idishlarga joylashtirilishi lozim. Me'da shilliq pardasining ko'zga ko'rinib turgan har qanday patologik qismidan qo'shimcha biopsiya olinishi kerak. Agar atrofik gastritning og'irligini baholash uchun OLGA yoki OLGIM tizimlaridan foydalanish rejalashtirilgan bo'lsa, me'da burchagidan ham qo'shimcha biopsiya olish mumkin.
----	--

Izoh: "Gastrit" tashxisi an'anaviy tarzda morfologik tashxis sifatida qaraladi. O'zgartirilgan Sidney tizimi talablariga ko'ra, oshqozon shilliq qavati holatini to'g'ri baholash uchun kamida beshta bioptat olinishi lozim. Biopsiya namunalari olish joylari quyidagicha belgilangan: antral qismdan 2 ta - pilorusdan 3 sm masofada katta va kichik egriliklar bo'ylab, oshqozon tanasidan 2 ta - katta egrilik o'rtasida va kichik egrilik bo'ylab burchakdan 4 sm yuqorida, hamda 1 ta oshqozon burchagidan.

Boshqa diagnostik tekshiruvlar

2V	Gastrit bilan kasallangan barcha bemorlarga etiotrop eradikatsion davolash ko'rsatmalarini aniqlash maqsadida Helicobacter pylori infeksiyasini aniqlash uchun $^{13}\text{S}/\text{S}^{14}$ -ureaza nafas sinamasi yoki najasdagi H. pylori antigenini aniqlash tavsiya etiladi. EGDFS o'tkazilganda esa tezkor ureaza sinamasi qo'llanilishi lozim.
----	---

Izoh: "Maastrixt-V" (2016) [6] kelishuv kengashi tavsiyalariga ko'ra, *H. pylori* infeksiyasini dastlabki tashxislash uchun eng maqbul usullar $^{13}S/^{14}S$ nafas ureaza testlari va najasdagi *H. pylori* antigenini aniqlashdir. EGDFS o'tkazilayotganda, dastlabki tashxis usuli sifatida tezkor ureaza testi qo'llanilishi mumkin. *H. pylori* infeksiyasini dastlabki aniqlash uchun *H. pylori* ga qarshi IgG sinfidagi antitelolarni aniqlashning serologik usuli ham foydalanilishi mumkin. Eradikatsion davolash tugaganidan so'ng 4-6 hafta o'tgach o'tkaziladigan eradikatsiya nazorati uchun $^{13}S/^{14}S$ ureaza nafas testlarini yoki najasdagi *H. pylori* antigenini aniqlashni qo'llash eng maqbul hisoblanadi. Soxta manfiy natijalarning oldini olish uchun proton pompa ingibitorlari (PPI) qabulini mo'ljallangan nazorat tekshiruvidan 2 hafta oldin to'xtatish lozim.

Qo'shimcha diagnostik tadbirlar ro'yxati:

- Umumiy qon tahlili - ko'rsatmalarga ko'ra;
- Qondagi zardob temirini aniqlash - kamqonlik holatida;
- Axlatni yashirin qonga tekshirish - kamqonlik holatida;
- Jigar, o't yo'llari va oshqozon osti bezi ultratovush tekshiruvi - ko'rsatmalarga ko'ra (surunkali autoimmun atrofik gastrit va/yoki gepatobiliar tizimning yondosh patologiyasi mavjud bo'lganda);
- Qonning biokimyoviy tahlillari: umumiy bilirubin va uning fraksiyalari, umumiy oqsil, albumin, xolesterin, ALT, AST, glyukoza, amilaza - (surunkali autoimmun atrofik gastrit va/yoki gepatobiliar tizimning yondosh patologiyasi mavjud bo'lganda);
- Surunkali autoimmun atrofik gastritda parietal hujayralarga qarshi antitanachalarni aniqlash;
- Qonda gastrin-17 va pepsinogen I (PG I) hamda pepsinogen II (PG II) darajasini aniqlash - multifokal atrofik gastritda;
- Intragastral pH-metriya - atrofik gastritning og'ir darajasida;
- Oshqozon-ichak traktining yuqori qismlarini bariy bilan rentgenologik tekshirish - ko'rsatmalarga ko'ra (pilorostenoz mavjud bo'lganda, endoskopik tekshiruvlarga qarshi ko'rsatmalar bo'lganda va bemor EGDFS dan bosh tortganda).

Mutaxassislar ko'rigi uchun ko'rsatmalar:

Tor mutaxassislar ko'rigi uchun ko'rsatmalar		
Nozologiya	Ko'rsatma	Mutaxassis ko'rigi
Surunkali yuzaki (antral) <i>H.pylori</i> assotsiirlangan gastrit	Yo'q	ko'rsatilmagan
Surunkali multifokal atrofik gastrit	KM II tipdagi gistologik manzara va oshqozon shilliq qavati displaziyasi	onkolog
Surunkali autoimmun atrofik gastrit	B12 anemiyasining gematologik ko'rinishida - nevrologik simptomatikada -	gematolog nevropatolog

9-jadval. Surunkali gastritning turli shakllarini tashxislash mezonlari:

Gastrit shakli	Klinikasi	Fizikal tekshiruv	Laborator	Instrumental
----------------	-----------	-------------------	-----------	--------------

	(shikoyatlari, anamnezi)	natijalari	tekshiruvlar natijalari	tekshiruvlar natijalari
Surunkali antral (yuzaki) gastrit, H.pylori assotsiirlangan	<p>11. Oshqozon dispepsiyasi alomatlari;</p> <p>2. "Yarasimon" simptomlar majmuasi;</p> <p>3. GastroEzofageal refluks (GER) mavjud bo'lganda jig'ildon qaynashi;</p> <p>4. "Ichak" dispepsiyasi belgilari.</p> <p>Anamnez: oshqozon-ichak trakti kasalliklari bo'yicha og'irlashgan irsiyat.</p> <p>Ovqatlanish tartibining buzilishi, quruq ovqat iste'mol qilish, achchiq, dudlangan va qovurilgan taomlarni, gazlangan ichimliklarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish;</p>	<p>Palpatsiyada epigastral va piloro-duodenal sohada o'rtacha og'riq, meteorizm</p>	<p>Umumiy qon talili va biokimyoviy tahlillar ko'rsatkichlari referens qiymatlar doirasida.</p>	<p>1. EGDFS: asosan oshqozonning antral qismida turli darajadagi faollik bilan kechayotgan yallig'lanish jarayoni belgilari/</p> <p>2. Biopatlarning gistologik tekshiruvi: yallig'lanish jarayoni belgilari va oshqozon shilliq qavatining H.pylori infeksiyasi bilan kolonizatsiyasi.</p> <p>3. H.pylori tashxisi uchun nafas sinamasi (90% hollarda ijobiy) [6].</p>
Surunkali atrofik multifokal gastrit	<p>1. Oshqozon dispepsiyasi belgilari,</p> <p>2. sekretor yetishmovchilikda - ich ketishga moyillik ("axiliya ich ketishi") va tana vaznining pasayishi.</p> <p>3. Astenovegetativ simptomlar majmuasi;</p>	<p>atrofiyaga uchragan "silliq" til yoki qalin oq karash bilan qoplangan til. Qorin paypaslab ko'rilganda epigastral sohada o'rtacha tarqalgan og'riqli sezuvchanlik kuzatiladi.</p>	<p>UQA, BKT referens qiymatlar chegarasida. Qonda PG I va PG I/PG II darajasining pasayishi.</p>	<p>1. EGDFS: oshqozonning antral qismi va tanasining keng tarqalgan zararlanishi,</p> <p>2. Ichak metaplaziyasi (IM) elementlari bilan atrofiyaning gistologik belgilari va H.pylori infeksiyasi bilan oshqozon shilliq qavatining kolonizatsiyalanishi.</p> <p>3. Intragastral pH-metriya - gipoxlorgidriya yoki axlorgidriya</p> <p>4. H.pylori</p>

				tashxisining tez uraza testi - ijobiy.
Surunkali atrofik autoimmun gastrit	<p>B-12 tanqisligi anemiyasining belgilari: holsizlik, uyquchanlik, bosh aylanishi va quloqlarda shovqin, yurak tez urishi;</p> <p>1. Oshqozon-ichak belgilari: og'iz va tilda og'riq hamda achishish; ishtaha yo'qolishi, vazn kamayishi; so'rilishning buzilishi natijasida ich ketishi;</p> <p>2. Asab tizimi belgilari: qo'l-oyoqlarda uvishish va paresteziyalar, holsizlik va ataksiya;</p> <p>3. Ruhiy holatning buzilishlari - yengil jahldorlikdan to og'ir demensiya yoki ruhiy kasallikkacha.</p>	<p>avitaminoz belgilari, glossit, funikulyar mieloz, anemiya belgilari, gepatomegaliya, kamroq - splenomegaliya</p>	<p>OAK - eritrotsitlarning makrotsitozi, giperxrom anemiya, bilvosita fraksiya hisobiga bilirubin darajasining o'rtacha ko'tarilishi, APK aniqlanishi. PG-I darajasining pasayishi, gastrin darajasining ko'tarilishi [2,7].</p>	<p>EGDFS - oshqozon shilliq qavati tanasi va tubining atrofiya belgilari, giperplastik poliplar</p> <p>Gistologik tekshiruv - yallig'lanish va atrofik jarayonlar</p> <p>H.pylori diagnostikasi</p> <p>bo'yicha BUT kamdan-kam hollarda ijobiy natija beradi</p> <p>Og'ir atrofik gastritning intakt oshqozon shilliq qavati bilan birgalikda kuzatilishi (yallig'lanish, parietal hujayralar massasining yo'qolishi, KM) AIG uchun patognomonik hisoblanadi [8].</p> <p>Intragastral pH-metriya - gipoxlorgidriya, UTT - jigar parenximasining diffuz o'zgarishlari, gepatomegaliya, ba'zan splenomegaliya</p>

Qiyosiy tashxis

Surunkali H.pylori assotsiirlangan yuzaki gastritning qiyosiy tashxisi:

Nozologiya	Simptomlar tavsifi	Tekshiruv rejasi	Klinik mezonlari	Laborator-instrumental belgilari
Surunkali yuzaki (antral)		Umumiy qon tahlili, EGDFS,	Me'da dispepsiyasi	Oshqozon shilliq qavatining endoskopik va

gastrit, H.pylori assotsiirlangan	Me'da dispepsiyasi sindromi	bioptatlarning gistologik tekshiruvlari, H. pylori testlari Yashirin qonga axlat tahlili	simptomlari	morfologik yallig'lanish belgilari; H. pylori 85-90% hollarda aniqlanadi;
Funksional (yarali bo'lmagan) dispepsiya		Umumiy qon tahlili, EGDFS, bioptatlarning gistologik tekshiruvlari, H. pylori testlari Yashirin qonga axlat tahlili	Yaraga o'xshash variant yoki dispeptik sindrom	Oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishiga oid endoskopik va morfologik belgilarning yo'qligi
12 b.ichak yara kasalligi		Umumiy qon tahlili, EGDFS, bioptatlarning gistologik tekshiruvlari, H. pylori testlari Yashirin qonga axlat tahlili	Piloroduodenal sohada kechki, "och qoringa" tungi og'riqlar	Temir tanqisligi anemiyasining laboratoriya belgilari bo'lishi mumkin; EGDFS - yarasimon nuqson, axlatdagi yashirin qonga ijobiy reaksiya,
Surunkali pankreatit		Obiijiy analiz krovi, koprogramma, elastaza v kale BAK:Amilaza UZI ili KT ili MRT organov bryushnoy polosti	«Qorinning chap yarmida belga tarqaluvchi "belbog'simon" og'riqlar; Merfi simptomi musbat.	Ultratovush tekshiruvi - oshqozon osti bezining o'lchamlari kattalashgani, giperexogenlik, konturlarining notekisligi, kalsinatlar va kistalar mavjudligi; koprogramma - steatoreya, kreatoreya; qonda amilaza miqdorining oshganligi; najasda elastaza va tripsin miqdorining ko'payganligi, steatoreya, kreatoreya kuzatilishi.

Surunkali atrofik (multifokal va autoimmunn) gastritning qiyosiy tashxisi

Nozologiya	Simptomlar tavsifi	Tekshiruv rejasi	Klinik mezonlari	Laborator- instrumental belgilari
Surunkali multifokal atrofik		Umumiy qon tahlili, EGDFS,	Giperatsid gastritda og'riq sindromi	Qonda: <PG-I va >gastrin darajasi;

gastrit	oshqozon shilliq qavatining ichak metaplaziyasiga xos gistologik belgilari	biopsiya namunalarining gistologik tekshiruvi, H.pylori bakteriyasiga tezkor ureaz testi (TUT), gastropanel: gastrin-17 va pepsinogen-I (PG-I) ko'rsatkichlari	ustunlik qilishidan farqli o'laroq, bu holatda dispepsiya sindromi yetakchi hisoblanadi. Ko'rikda: til "silliq" ko'rinishda bo'ladi, kasallik avj olgan paytlarda esa til qalin oq karash bilan qoplanadi. Qorinni paypaslab ko'rilganda og'riq sezilmaydi.	EGDFS - me'da shilliq qavati atrofiyasi belgilari; Gistologik tekshiruv: Bez epiteliysi atrofiyasi, KM, me'da shilliq qavatida H.pylori ning oz miqdori, yallig'lanishning minimal faolligi
Surunkali autoimmun atrofik gastrit		Umumiy qon tahlili, EGDFS, biopsiya namunalarining gistologik tekshiruvi, H.pylori bakteriyasiga tezkor ureaz testi (TUT), APK, gastrin-17 va pepsinogen-I (PG-I) ko'rsatkichlari	B12 tanqisligi anemiyasi klinikasi va nevrologik simptomlar (oyoqlar paresteziyasi) ustunlik qiladi.	QQA: Retikulotsitlar miqdori (0,5% dan past); trombotsitlar va leykotsitlar miqdori kam, anizo-va poykilotsitoz, Kebot halqalari, Jolli tanachalari, normoblastlar mavjud. Qonda: PG-I miqdori past va gastrin darajasi yuqori; Qonning biokimyoviy tahlilida: LDG darajasi yuqori, ishqoriy fosfataza past, bilvosita bilirubin darajasi yuqori. Antiperinuklear antitanachalar mavjudligi. EGDFS - oshqozon shilliq qavati atrofiyasi belgilari; Gistologiya: Bezli epiteliy atrofiyasi, ichak metaplaziyasi

				Sekresiya asta-sekin pasayib, axlorgidriyagacha yetib boradi.
Me'da yara kasalligi		OAK, EGDFS, bioptatlarning gistologik tekshiruvlari, H.pylori diagnostikasi Rentgenogramma - pilorostenozda	Oshqozon va ichak dispepsiyasi belgilari; ovqatdan 1-1,5 soat o'tgach "erta" epigastral og'riqlar, yomon ishtaha, vazn yo'qotish	EGDFS - Yallig'lanish to'qimasi bilan o'ralgan yara nuqsoni, najasdagi yashirin qonga ijobiy reaksiya, temir tanqisligi anemiyasi Intragastral pH-metriya - gipo- yoki normoxlorgidriya
Me'da adenokarsionomasi		Umumiy qon tahlili, fibrogastroduodenoskopiya, oshqozon bioptatlarining gistologik tekshiruvi, H.pylori diagnostikasi Axlatda yashirin qon tekshiruvi	Oshqozon va ichak dispepsiyasining belgilari; ishtahaning yo'qolishi, go'shtdan nafatlanish, vazn yo'qotish (kaxeksiyagacha)	Gipoxrom kamqonlik. > EChT EGDFS - o'sma. Gistologik tekshiruv - displaziya va atipik hujayralar aniqlanishi. Intragastral pH-metriya - axlorgidriya; Axlatda yashirin qon borligiga ijobiy reaksiya

Medikamentoz davu.

Surunkali gastritning turli shakllarida dori-darmon terapiyasi, uning rivojlanishining turli etiopatogenetik omillarini hisobga olgan holda farqlanadi.

Atrofik bo'lmagan gastrit farmakoterapiyasining tamoyillari:

- NR ijobiy bemorlarda eradikatsion antixelikobakter terapiyasi;
- eradikatsion terapiya kursi yakunlangandan 4-6 hafta o'tgach, antixelikobakter terapiya samaradorligini albatta nazorat qilish;
- xavf omillariga ta'sir qilish (NYaQDV dorilarini parasetamol, SOG-2 tanlab ta'sir qiluvchi ingibitorlari bilan almashtirish, NYaQDV dorilarini rebamipid bilan birgalikda qo'llash, bemorlarning davolash rejimiga rioya qilishini ta'minlash va boshqalar).

Atrofik gastrit farmakoterapiyasining tamoyillari:

- HP ijobiy bemorlarda eradikatsion antixelikobakter terapiyasi;
- 4-6 haftadan so'ng antixelikobakter terapiya samaradorligini albatta nazorat qilish;

Sitoprotektiv dori vositalarini qo'llash;

- pernitsioz anemiyaning oldini olish va davolash maqsadida V12 vitaminini qo'llash.

Proton pompasi ingibitorlari (PPI) eng kuchli antisekretor dorilar hisoblanadi. Ular og'riq sindromi va dispeptik buzilishlarni bartaraf etish hamda tez remissiyaga erishish maqsadida tayinlanadi.

